XALQ DEPUTATLARI PARKENT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 6-sentabr VI-98-103-10-141-K/24 Parkent tumani

Parkent tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan vedeoselektor yigʻilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar maʼmuriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish boʻyicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan Yoʻl xaritasi hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan vedeoselektor yigʻilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yoʻl xaritasi” maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kadastr agentligining 2024-yil 4-apreldagi Toshkent viloyati hokimligiga yuborilgan 03/08-3236-sonli xat orqali yuborilgan maʼmuriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Parkent tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasining yigʻilish bayoni maʼqullansin.

4. Parkent tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasi tomonidan oʻrganib chiqilgan materiallarga asosan Parkent tumani bilan chegaradosh boʻlgan Boʻstonliq, Ohangaron va Yuqori Chirchiq tumanlari oʻrtasidagi chegara chizigʻini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman maʼmuriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizigʻi hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq va yoʻl va boshqa tabiiy va sunʼiy obyektlar) saqlab qolinishi boʻyicha Kadastr agentligining tuman boʻlimi boshligʻi F.Jo'raboyevga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Makur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining barcha oʻrinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning tasdigʻi Xalq deputatlari viloyat Kengashidan soʻralsin.

Sessiya raisi

BERDIQULOVA
MAVLUDA
TOJIDDINOVNA

Xalq deputatlari Parkent tumani
Kengashining
2024-yil 6-sentabrdagi
VI-98-103-10-141-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati Parkent tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining

T A V S I F I

Yuqorichirchiq, Boʻstonliq, Parkent tumanlarining chegara chiziqlari tutashgan joy, avtomobil yoʻlida joylashgan nuqta boshlangʻich 1-nuqta deb qabul qilindi

(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 41°24'36,942", sharqiy uzoqlik koordinatalari 69°35'52,827").

A dan B gacha Boʻstonliq tumani yerlari bilan 1 - 29 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining sharq tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1774 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°25'25,429", sharqiy uzunlik 69°36'33,299").*

2-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlini kesib oʻtib qishloq ichki yoʻliga oʻtadi, keyin yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1606 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan
3-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°26'07,102", sharqiy uzunlik 69°37'13,764").*

3-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlidan dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning janub tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 856 metr masofani oʻtib ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 573 metr masofada Parkent kanalini kesib oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°25'33,240", sharqiy uzunlik 69°37'51,081").*

4-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Parkent magistral kanalining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3672 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°26'34,388", sharqiy uzunlik 69°39'16,329").*

5-nuqtadan chegara chizigʻi Parkent magistral kanalidan quruq soyga oʻtadi, keyin quruq soyning oʻng tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 737 metr masofani oʻtib, soʻng quruq chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 130 metr masofada soyni kesib oʻtadi, soʻngra qishloq ichki yoʻliga tutashadi va yoʻlning janub tomoni bilan yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda 492 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°26'12,464", sharqiy uzunlik 69°40'02,546").*

6-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻni kesib oʻtib lalmi yer chegarasi va adirlik tepaliklari boʻylab umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy

yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1173 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘liga o‘tadi, keyin yo‘lning janub tomoni bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 566 metr masofani o‘tib adirlik tepaliklariga o‘tadi va umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 988 metr masofani o‘tib, adirlik tepaligida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41° 26′ 52,080″, sharqiy uzunlik 69°41′ 10,166″).*

7-nuqtadan chegara chizig‘i adirlik tepaliklari bo‘ylab umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2414 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘liga o‘tadi, keyin yo‘lning sharq tomoni bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 405 metr masofani o‘tib, so‘ng yo‘lning g‘arb tomoni bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 712 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41° 26′ 15,247″, sharqiy uzunlik 69°42′ 57,484″).*

8-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan adirlik tepaliklariga o‘tadi va janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 981 metr masofani o‘tib, keyin umumiy janubiy yo‘nalishda 1208 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41° 25′09,430″, sharqiy uzunlik 69°42′39,196″).*

9-nuqtadan chegara chizig‘i soyning suv oqimi bo‘ylab umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 355 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chiziq orqali janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 168 metr masofada lalmi yer chegarasiga tutashadi va umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 519 metr masofada qishloq ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘l bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41° 24′ 51,853″, sharqiy uzunlik 69° 42′ 10,632″).*

10-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 600 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41° 24′ 42,430″, sharqiy uzunlik 69°42′32,682″).*

11-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning janub tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1428 metr masofani o‘tib adir tepaliklariga o‘tadi va umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1623 metr masofani o‘tib dala tuproq yo‘liga o‘tadi, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 81 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°24′28,192″, sharqiy uzunlik 69°40′42,563″).*

12-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1904 metr masofani o‘tib, keyin ariqning suv oqimiga qarshi hamda lalmi yer chegarasi bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 747 metr masofani o‘tib, so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1528 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°23′03,153″, sharqiy uzunlik 69°38′44,875″).*

13-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1032

metr, keyin umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 741 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°23'17,264", sharqiy uzunlik 69°39' 39,525").*

14-nuqtadan chegara chizig‘i ariq, quruq soy va dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 540 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 218 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 711 metr, so‘ngra umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 348 metr, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 163 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 219 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41° 22' 43,396", sharqiy uzunlik 69° 40' 29,196").*

15-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1876 metr masofada quruq soyga o‘tadi, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda quruq soyning suv oqimiga qarshi 1227 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41° 22' 33,918", sharqiy uzunlik 69° 42' 23,764").*

16-nuqtadan chegara chizig‘i soy bo‘ylab umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3664 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan
17-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°22'24,481", sharqiy uzunlik 69°44'42,814").*

17-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soydan, sim to‘siqqa o‘tadi va quruq soy bo‘ylab umumiy sharqiy yo‘nalishda 563 metr masofani o‘tib, Chotqol tog‘ tizmasi va lalmi yer chegarasi bo‘ylab umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1263 metr, keyin umumiy shimoliy yo‘nalishda 382 metr masofani o‘tib, tog‘ tizmasi bo‘yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°22'12,214", sharqiy uzunlik 69°45'43,273").*

18-nuqtadan chegara chizig‘i Chotqol tog‘ tizmasi bo‘ylab umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4738 metr masofani o‘tib, tog‘ tizmasi bo‘yida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41° 21' 11,915", sharqiy uzunlik 69° 48' 11,846").*

19-nuqtadan chegara chizig‘i Chotqol tog‘ tizmasi bo‘ylab umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5593 metr masofani o‘tib tog‘ tizmasi bo‘yida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41° 22'53,191", sharqiy uzunlik 69° 51'06,415").*

20-nuqtadan chegara chizig‘i Chotqol tog‘ tizmasi bo‘ylab umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2924 metr masofani o‘tib tog‘ tizmasi bo‘yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°24'05,785", sharqiy uzunlik 69° 51' 59,414").*

21-nuqtadan chegara chizig‘i Chotqol tog‘ tizmasi bo‘ylab umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 593 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1566 metr, so‘ng quruq chiziq orqali shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 904 metr, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 134 metr masofada soyga tutashadi, keyin soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda

10 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41° 25′ 23,661″, sharqiy uzunlik 69° 52′ 24,645″).*

22-nuqtadan chegara chizig‘i Soyni kesib o‘tib Chotqol tog‘ tizmasiga o‘tadi va tog‘ tizmasi bo‘ylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 3813 metr masofani o‘tib, keyin umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2835 metr masofani o‘tib, tog‘ tizmasida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41° 27′ 21,302″, sharqiy uzunlik 69° 55′ 42,964″).*

23-nuqtadan chegara chizig‘i Chotqol tog‘ tizmasi bo‘ylab umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3522 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2242 metr, so‘ng sharqiy yo‘nalishda 927 metr masofani o‘tib, tog‘ tizmasida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°28′ 50,290″, sharqiy uzunlik 69° 59′ 33,425″).*

24-nuqtadan chegara chizig‘i Chotqol tog‘ tizmasi bo‘ylab umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3252 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 3307 metr masofani o‘tib, tog‘ tizmasida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°29′42,316″, sharqiy uzunlik 70°03′32,801″).*

25-nuqtadan chegara chizig‘i Chotqol tog‘ tizmasi hamda yon bag‘irlari bo‘ylab umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1200 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1461 metr, so‘ng janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 3583 metr, so‘ngra umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3323 metr masofani o‘tib tog‘ tizmasida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°25′12,699″, sharqiy uzunlik 70°03′ 47,888″).*

26-nuqtadan chegara chizig‘i Chotqol tog‘ tizmasi bo‘ylab umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2942 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 2221 metr, so‘ng umumiy g‘arbiy yo‘nalishda 1309 metr , so‘ngra umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1356 metr masofani o‘tib, tog‘ tizmasida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°23′28,312″, sharqiy uzunlik 70°01′23,452″).*

27-nuqtadan chegara chizig‘i Chotqol tog‘ tizmasi bo‘ylab umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3420 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1906 metr, so‘ng umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 2617 metr masofani o‘tib soyga tutashadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 619 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°20′47,787″, sharqiy uzunlik 69° 58′ 41,418″).*

28-nuqtadan chegara chizig‘i Soydan Chotqol tog‘ tizmasiga o‘tadi va tog‘ tizmasi bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3427 metr, keyin umumiy janubiy yo‘nalishda 3180 metr, so‘ng umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 4088 metr masofani o‘tib, Bo‘stonliq, Ohangaron, Parkent tumanlari chegara chizig‘i tutashgan joy, tog‘ tizmasida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41° 15′ 48,518″, sharqiy uzunlik 69°58′26,354″).*

B dan D gacha Ohangaron tumani yerlari bilan 29 - 42 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

29-nuqtadan chegara chizigʻi Chotqol togʻ tizmasidan Taqali togʻ tizmasiga tutashadi va Taqali togʻ tizmasi boʻylab umumiy janubiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3794 metr masofani oʻtib, togʻ tizmasida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°13'53,961", sharqiy uzoqlik 69°58'30,553").*

30-nuqtadan chegara chizigʻi Taqali togʻ tizmasi boʻylab umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4392 metr, keyin janubiy yoʻnalishda 985 metr, soʻng gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 2387 metr masofani oʻtib, togʻ tizmasida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°11'07,043", sharqiy uzoqlik 69° 55' 22,176").*

31-nuqtadan chegara chizigʻi Taqali togʻ tizmasi boʻylab umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4576 metr, soʻng umumiy janubiy yoʻnalishda 1803 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan
32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°9'04,728", sharqiy uzoqlik 69°53'14,702").*

32-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1947 metr, keyin yoʻlning janub tomoni bilan umumiy gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1152 metr, soʻng umumiy gʻarbiy yoʻnalishda 1101 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°08'16,397", sharqiy uzoqlik 69°51'08,648").*

33-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan Taqali togʻ tizmasiga oʻtadi va togʻ tizmasi boʻylab umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4092 metr masofani oʻtib, togʻ tizmasi yon bagʻrida joylashgan
34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°06'54,101", sharqiy uzoqlik 69°49'18,881").*

34-nuqtadan chegara chizigʻi Taqali togʻ tizmalarining yon bagʻrlari boʻylab umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3865 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 777 metr masofani oʻtib, togʻ tizmasi yon bagʻrida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°06'01,812", sharqiy uzoqlik 69° 47'02,862").*

35-nuqtadan chegara chizigʻi togʻ tizmasi yon bagʻridan dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning sharq tomoni bilan umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3939 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°04'52,587", sharqiy uzoqlik 69°45'20,869").*

36-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3768 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°05'37,205", sharqiy uzoqlik 69°43'34,768").*

37-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan umumiy gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 980 metr masofani oʻtib, keyin yoʻlning gʻarb tomoni bilan umumiy shimoliy-gʻarbiy

yo‘nalishda 2602 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1077 metr masofada R-15 avtomobil yo‘liga o‘tadi va yo‘l bo‘yida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°07′ 0,097″, sharqiy uzoqlik 69° 41′ 39,352″).*

38-nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali g‘arbiy yo‘nalishda 2321 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 1264 metr masofani o‘tib, R-15 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°07′48,592″, sharqiy uzoqlik 69°39′54,622″).*

39-nuqtadan chegara chizig‘i R-15 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib adirlik yo‘liga o‘tadi va umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 808 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°08′14,645″, sharqiy uzoqlik 69°39′53,914″).*

40-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1832 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°08′ 10,224″, sharqiy uzoqlik 69° 38′ 50,368″).*

41-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1184 metr masofani o‘tib, Ohangaron, Yuqori Chirchiq va Parkent tumanlari chegara chiziqlari tutashgan joy, yo‘l bo‘yida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°07′53,790″, sharqiy uzoqlik 69° 38′ 11,899″).*

D dan A gacha Yuqori Chirchiq tumani yerlari bilan 42 - 1 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

42-nuqtadan chegara chizig‘i ekin yeri chegarasi bo‘ylab umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1718 metr masofani o‘tib, ekin yeri chegarasi bo‘yida joylashgan 43-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°07′46,889″, sharqiy uzoqlik 69° 37′02,118″).*

43-nuqtadan chegara chizig‘i ekin yeri chegarasi bo‘ylab umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 724 metr masofada Parkent kanalini, dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 44-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°07′27,358″, sharqiy uzoqlik 69° 36′ 50,380″).*

44-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 26 metr masofani o‘tadi, keyin yo‘ldan ariqqa o‘tadi va umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi barcha burilishlarni hisobga olgan holda 568 metr masofani o‘tib, so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 456 metr masofani o‘tib, R-15 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 45-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°07′05,203″, sharqiy uzoqlik 69° 37′ 0,462″).*

45-nuqtadan chegara chizig‘i R-15 avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 52 metr masofani o‘tib, keyin quruq chiziq orqali janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 82 metr masofada yo‘lni, B-3 zovurini kesib o‘tadi, so‘ng umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 948 metr masofada qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 353 metr, so‘ngra yo‘lning sharq tomoni bilan umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 170 metr masofani

o‘tib, R-15 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°07'02,704", sharqiy uzoqlik 69° 36' 18,191").*

46-nuqtadan chegara chizig‘i R-15 avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 79 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chiziq orqali shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 31 metr masofada yo‘lni kesib o‘tib B-3 zovuriga tutashadi, so‘ng umumiy g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 330 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°07'02,379", sharqiy uzoqlik 69°36'0,564").*

47-nuqtadan chegara chizig‘i zovurdan tomorqa chegarasiga o‘tadi, keyin tomorqa chegarasi bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1169 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 48-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°07'31,359", sharqiy uzoqlik 69° 35' 32,060").*

48-nuqtadan chegara chizig‘i ariqni kesib o‘tadi va tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin chegara bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 935 metr masofada zovurga tutashadi va shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 212 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 185 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 49-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°08'0,850", sharqiy uzoqlik 69° 35' 13,376").*

49-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 193 metr masofani o‘tadi keyin qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 423 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°08'12,537", sharqiy uzoqlik 69°35'10,366").*

50-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lidan beton ariqqa tutashadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 665 masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 51-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°08'31,932", sharqiy uzoqlik 69° 35' 19,678").*

51-nuqtadan chegara chizig‘i ariqdan zovurga o‘tib shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 549 metr masofada beton ariqni kesib o‘tadi va shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 438 metr masofani o‘tib, beton ariq bo‘yida joylashgan 52-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°08'54,072", sharqiy uzoqlik 69° 35' 40,340").*

52-nuqtadan chegara chizig‘i beton ariqdan Qizilsoy soyiga o‘tadi va umumiy sharqiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3818 metr masofani o‘tib, Qizilsoy soyi bo‘yida joylashgan
53-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°09'03,715", sharqiy uzoqlik 69°38'03,142").*

53-nuqtadan chegara quruq chiziq orqali Qizilsoy soyini kesib o‘tib, keyin umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 402 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 54-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°09'15,731", sharqiy uzoqlik 69° 38'04,400").*

54-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 316 metr masofada ariqqa tutashadi va g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 116 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi keyin tomorqa chegarasi bo‘ylab umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 327 metr masofada zovurga tutashadi, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 882 metr masofada Ugom arig‘ini kesib o‘tib, Ugom arig‘i bo‘yida joylashgan 55-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°09'43,784", sharqiy uzoqlik 69° 38' 36,279").*

55-nuqtadan chegara chizig‘i Ugom arig‘ining suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha buriolishlarni hisobga olgan holda 2214 metr masofani o‘tib, Ugom arig‘i bo‘yida joylashgan 56-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°09'33,850", sharqiy uzoqlik 69°37'14,276").*

56-nuqtadan chegara chizig‘i Ugom arig‘idan dala tuproq yo‘liga tutashadi va dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 521 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1132 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 57-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41° 10' 18,676", sharqiy uzoqlik 69°37'26,435").*

57-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan qir adirlik tepaligiga o‘tadi va adirlik tepalik lari bo‘ylab umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2523 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 58-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41° 11' 32,929", sharqiy uzoqlik 69° 38'02,615").*

58-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 78 metr masofani o‘tib, lalmi yer chegarasi o‘tadi va lalmi yer chegarasi bo‘ylab g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 484 metr, keyin umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 557 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 59-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°11'41,671", sharqiy uzoqlik 69°37'30,704").*

59-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1921 metr, keyin dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 524 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 60-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°12'42,360", sharqiy uzoqlik 69°37'05,639").*

60-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan quruq soyga o‘tadi va shimoliy yo‘nalishda soy suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 89 metr masofani o‘tib, keyin soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2152 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib yo‘l bo‘yida joylashgan 61-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°12'26,688", sharqiy uzoqlik 69°35'44,574").*

61-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq dala tuproq yo‘lidan soyga o‘tadi va soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i biln umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha

burilishlarni hisobga olgan holda 2112 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3292 metr masofada Xondam kanali kesib o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 62-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°13'47,810", sharqiy uzoqlik 69°33'24,811").*

62-nuqtadan chegara chizig‘i Xondam kanalining suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 501 metr, keyin umumiy g‘arbiy yo‘nalishda 536 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 63-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°13'33,749", sharqiy uzoqlik 69°32'53,996").*

63-nuqtadan chegara chizig‘i Xondam kanalidan dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning janub tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 276 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 345 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 643 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 64-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°13'25,477", sharqiy uzoqlik 69° 32' 18,674").*

64-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda 589 metr masofada Oqovul kanaliga tutashadi va shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda Oqovul kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 612 metr masofani o‘tib, Oqovul kanali bo‘yida joylashgan 65-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°13'40,507", sharqiy uzoqlik 69°31'43,552").*

65-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Oqovul kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1456 metr masofani o‘tib, keyin kanaldan ariqqa o‘tib sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 149 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 66-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°14'23,122", sharqiy uzoqlik 69°32'03,561").*

66-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan umumiy shimoliy yo‘nalishda 739 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 67-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41° 14' 47,014", sharqiy uzoqlik 69°32'04,151").*

67-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tadi va tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 278 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda 172 metr masofani o‘tib, so‘ng quruq chiziq orqali shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 59 metr masofada ariqqa tutashadi, so‘ngra sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 165 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 68-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41° 14' 53,295", sharqiy uzoqlik 69°32'25,253").*

68-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 353 metr masofada tomorqa chegarasiga o‘tadi, keyin tomorqa chegarasi bo‘ylab g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 238 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 69-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°14'59,496", sharqiy uzoqlik 69°32'10,508").*

69-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 461 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, keyin avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 153 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li ko‘prigi bo‘yida joylashgan 70-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°15'13,967", sharqiy uzoqlik 69°32'07,565").*

70-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘li ko‘prigidan Oqovul kanaliga tutashadi va shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 964 metr masofani o‘tib, oqovul kanali bo‘yida joylashgan 71-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°15'37,073", sharqiy uzoqlik 69°32'31,815").*

71-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda Oqovul kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 983 metr masofani o‘tib, Oqovul kanali bo‘yida joylashgan 72-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°16'05,763", sharqiy uzoqlik 69°32'44,193").*

72-nuqtadan chegara quruq chiziq orqali Oqovul kanalini kesib o‘tib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 61 metr masofada qabriston chegarasiga tutashadi va qabriston chegarasi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 201 metr masofani o‘tib, keyin ariqqa o‘tadi va umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 668 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 73-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°16'28,964", sharqiy uzoqlik 69° 33'02,927").*

73-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1296 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 74-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°17'09,297", sharqiy uzoqlik 69° 33' 14,476").*

74-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2600 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 75-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°18'29,206", sharqiy uzoqlik 69° 33' 46,288").*

75-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lidan R-15 avtomobil yo‘liga o‘tadi va yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 597 metr masofani o‘tib, keyin R-15 avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi va qishloq ichki yo‘liga tutashadi, so‘ng qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 176 metr masofani o‘tib, so‘ngra to‘g‘ri chiziq orqali yo‘nalishni o‘zgartimagan holda 65 metr masofada qishloq ichki yo‘lini, Parkentsoy soyini kesib o‘tib, Parkentsoy soyi bo‘yida joylashgan 76-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°18'39,321", sharqiy uzoqlik 69°33'20,707").*

76-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda Parkentsoy soyining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 187 metr masofani o‘tib ariqqa tutashadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 121 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 213 metr, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 33 metr, so‘ngra sharqiy yo‘nalishda 157 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 77-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°18'45,344", sharqiy uzoqlik 69°33'45,367").*

77-nuqtadan chegara chizig‘i ariq bo‘yidan qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 317 metr masofani o‘tib, keyin ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 311 metr, so‘ng umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 165 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 508 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 78-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°19'07,049", sharqiy uzoqlik 69°33'20,753").*

78-nuqtadan chegara chizig‘i ariq bo‘yidan zovurga tutashadi va shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 493 metr masofada qishloq ichki yo‘liga tutashadi va qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 192 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 79-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°19'22,083", sharqiy uzoqlik 69° 33' 34,830").*

79-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 52 metr masofada ariqqa tutashadi, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 161 metr masofada Yoyilmasoy zovurini kesib o‘tadi, so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1318 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 80-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°20'01,107", sharqiy uzoqlik 69° 34' 06,984").*

80-nuqtadan chegara chizig‘i Yoyilmasoy zovurini kesib o‘tib tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi bo‘ylab sharqiy yo‘nalishda 151 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 260 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tadi, so‘ng yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 192 metr masofada ariqqa o‘tadi, so‘ngra umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 165 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 81-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41° 19' 47,928", sharqiy uzoqlik 69°34'15,345").*

81-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 227 metr masofani o‘tib, keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 80 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 42 metr, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 32 metr, so‘ng umumiy janubiy yo‘nalishda 292 metr masofada tomorqa devoriga tutashadi, keyin devor bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 29 metr masofani o‘tib, tomorqa devorida joylashgan 82-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°19'32,470", sharqiy uzoqlik 69° 34' 18,040").*

82-nuqtadan chegara chizig‘i tomorqa devoridan qishloq ichki yo‘liga o‘tadi, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 213 metr masofada yo‘lni kesib o‘tadi, so‘ng yo‘lning janub tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 155 metr masofani o‘tib, so‘ngra tomorqa devoriga tutashadi va devor bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 306 metr masofada zovurga tutashadi, keyin yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 155 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 83-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41° 19' 30,830", sharqiy uzoqlik 69° 34' 33,096").*

83-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining sharq tomoni bilan

shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 665 metr masofani o‘tib, keyin Xondam kanalini kesib o‘tadi va dala tuproq yo‘liga tutashadi, so‘ng yo‘lning janub tomoni bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 652 metr masofani o‘tib, tomorqa chegarasi bo‘yida joylashgan 84-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°19'45,261", sharqiy uzoqlik 69°34'42,140").*

84-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan zovur dambasiga o‘tadi va damba bo‘ylab umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 946 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, Xondam kanali bo‘yida joylashgan 85-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°20'02,708", sharqiy uzoqlik 69°34'22,091").*

85-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Xondam kanalining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 722 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 86-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41° 20' 23,557", sharqiy uzoqlik 69° 34' 29,977").*

86-nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 14 metr masofada Xondam kanaliga tutashadi va umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1464 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li ko‘prigida joylashgan 87-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41° 20' 52,931", sharqiy uzoqlik 69° 33' 49,253").*

87-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining sharq tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 890 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib ariqqa tutashadi, keyin yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 287 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 88-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°21'21,955", sharqiy uzoqlik 69°34'13,575").*

88-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1856 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 89-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41° 22' 04,883", sharqiy uzoqlik 69° 34' 49,627").*

89-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1125 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 132 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 90-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41° 22' 21,681", sharqiy uzoqlik 69° 35' 27,741").*

90-nuqtadan chegara chizig‘i ariqdan Juduruq zovuriga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1954 metr masofani o‘tib, Juduruq zovuri bo‘yida joylashgan 91-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°22'02,804", sharqiy uzoqlik 69° 34' 37,149").*

91-nuqtadan chegara chizig‘i Juduruq zovurining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1214 metr masofada qishloq ichki yo‘liga tutashadi va qishloq ichki yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 878 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 92-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°21'24,994", sharqiy uzoqlik 69°33'25,634").*

92-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, Xondam kanaliga tutashadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Xondam kanalining

suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 2531 metr masofani o‘tib, Xondam kanali bo‘yida joylashgan 93-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41° 22′ 33,939″, sharqiy uzoqlik 69°33′58,691″).*

93-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Xondam kanalining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1997 metr masofani o‘tib, Xondam kanali ko‘prigini kesib o‘tib ko‘prik bo‘yida joylashgan 94-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41° 23′ 26,313″, sharqiy uzoqlik 69° 34′ 45,540″).*


94-nuqtadan chegara chizig‘i Xondam kanalidan qishloq ichki yo‘liga o‘tadi va qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1526 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 95-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41° 24′ 01,807″, sharqiy uzoqlik 69° 35′ 26,353″).*

95-nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 10 metr masofada avtomobil yo‘liga tutashadi va avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1253 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41° 24′ 36,942″, sharqiy uzoqlik 69° 35′ 52,827″).*

Xalq deputatlari Parkent tumani
Kengashining
2024-yil 6-sentabrdagi
VI-98-103-10-141-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Toshkent viloyati Parkent tumani ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining kartografik CHIZMASI

Xalq deputatlari Chinoz tumani Kengashining 2024-yil ___-_____dagi _____ - sonli qaroriga 2-ilova



Shartli belgilar:

Parkent tumani ma'muriy-hududiy chegara chizig'i

1 *Parkent tumani ma'muriy-hududiy chegarasining burilish nuqtasi va raqami*